

KELASI ZAMONGA TEGISHLI VAZIYATLARDAGI IRREALIS IFODALANISHI

N. Ochilova¹

Annotatsiya:

Hozirgi kunda zamonaviy jahon tilshunosligida tilning konseptual mohiyatini turli lisoniy sathlarda aniqlashga e'tibor qaratilmoqda. Unda turli xil yondashuvlar asosida izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada kelasi zamonga tegishli vaziyatlarda irrealisning ifodalanishi haqida va uning misollarda aks etishi haqida fikrlar aytib o'tilgan. Tilshunoslikning turli sathlarida ko'plab atamalardan foydalanishda farqlanishlar bo'lgani kabi, "realis" va (ayniqsa) "irrealis" so'zlaridan foydalanish bir qator grammatik tavsiflar mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Kalit so'zlar: realis, irrealis, konseptual asos, funksional farq, modal kategoriya.

doi: <https://doi.org/10.2024/vkrnzy81>

Tilning jamiyatda, turli halqlar hayotidagi funksional jihatlarini o'rganishga, uning semantik, lingvokognitiv, lingvokulturologik va sotsiolingvistik masalalariga asosiy e'tibor qaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, til sathlaridagi vositalarni konseptual asosini belgilash uning qonuniyatlarini tadqiq etishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Aynan shuning uchun til va tafakkur, til va madaniyat, til va jamiyat munosabatlari singari global va murakkab muammolar zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlarining diqqat markazidir. Shu munosabat bilan turli tizimlarga mansub tillar sohasida sodir bo'ladigan real va noreal hodisalar ifodasi ularning o'zbek va ingliz tilidagi xususiyatlarini yorituvchi lisoniy vositalarni tadqiq qilish alohida ahamiyat kasb etadi, Zotan, ushbu tillarda ularning nutqda faollashuvini qiyosiy tahlil qilishi ahamiyatli sanaladi.

G. Risinkning qayd etishiga metatili tilga xos ma'nolarni ifodalashi haqida taqqoslanadigan tizimlardagi funktsional farqlarni yo'q qilish mumkin. Tilshunoslarning "realis" va "irrealis" so'zlaridan foydalanish tanqidchilari ta'kidlaganidek, ba'zi tillardagi kategoriyalar ushbu atamalarni qo'llash orqali haqiqatan ham buzilgan bo'lishi mumkin. Ushbu imkoniyatni hisobga olish muhimdir. S. Cristofaro o'z maqolasida "ba'zi tillarda "irrealis" deb belgilangan kategoriyaning xususiyatlarini noto'g'ri ifodalanishi" haqida ogohlantiradi.

Tilshunoslikning turli sathlarida ko'plab atamalardan foydalanishda farqlanishlar bo'lgani kabi, "realis" va (ayniqsa) "irrealis" so'zlaridan foydalanish bir qator grammatik tavsiflar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, tilshunoslar muayyan konstruktsiyalarga murojaat qilish uchun "realis" va (ayniqsa) "irrealis" tavsiflovchi vositalardan foydalanganda, odatda, voqealikni ifoda etuvchi lisoniy vositalarni ularni tilde konseptuallashtirish jarayonini aniqlash muhimdir. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlashtirish orqali biror natijaga erishish mumkin.

C. Kristofaroning realis va irrealis borasidagi fikri tilshunoslarga modal kategoriyalar uchun atamalardan foydalanishda ehtiyot bo'lish kerakligini eslatadi. Chunki ayniqsa "irrealis" so'zi juda ko'p turli ma'nolarda qo'llangan. Biroq, buning ham salbiy tomoni bor.

¹ Ochilova Noila Farmonovna, SamDCHTI o'qituvchisi

Agar biz realis va irrealis kategoriyalarni kontseptual jihatini chuqurroq nazariylashtirilgan kategoriyalar (masalan, zamon, aspekt, mayl va inkor) va ular bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqsak, biz realis va irrealisni tushunish imkoniyatini qo'ldan boy berishimiz mumkin.

Ushbu nazariy kategoriyalarga kuchli tayanishni funktsional asosga ega tavsiflovchi atamalar va tushunchalar sifatida realis va irrealisni alohida o'rganish shart yoki shart emasligi borasida dalillar topish mumkin. Ushbu mualliflar asarlarda turli yo'llar bilan ifodalangan eng keng tarqalgan mulohazada tillardagi realis va irrealis kategoriyalari vaqtinchalik havola, inkor va ko'rsatma nutq aktlari kabi hodisalar bilan bog'langanligi sababli ularning kategoriya sifatida qabul qilishga qarshiliklar mavjud. Ammo, bizning fikrimizga kategorial belgilar har doim ham amaliy vositalar faollashuvi bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, nazariy asosga ega hodisalarga ham taaluqlidir. Misol uchun kognitiv tilshunoslikda keng tarmoq otayotgan prototip kategorial belgilar va ularning nazariyasi bo'yicha misol bo'lishi mumkin. Prototiplikni realis va irrealisni sathlarida ko'rib chiqish masalasi ham, qayd etilganidek, nazariy qarashlarga mos keladi. Shu jihatdan, nazariy va amaliy (lingvistik) kategoriyalarni chalkashtirmaslikni talab etiladi.

Prototip yoki semantik yadro tushunchasi irrealis belgilarning qaysi semantik materiallari (yoki talqinlari) tillar kesimida izchil bo'lishi mumkinligini yaxshiroq tushunish uchun vosita baholovchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Ushbu tadqiqotlar ko'p jihatdan irrealisning kontseptual ahamiyati masalasiga oydinlik kiritishga xizmat qildi. Alohida ravishda, irrealis kategoriyasining umumiy ko'rinishini ta'minlaydigan tipologik yo'naltirilgan ishlarda realis va irrealis kategoriyalari ta'riflari qo'llaniladi. Ular ko'pincha tillararo yadro tushunchasiga tayanadi.

Gap shundaki, irrealisni kontseptual mazmunini hosil qiluvchi barcha holatlarda qo'llaniladigan yagona semantik prototip mavjud emas. Irrealis uchun muhim ma'no nima ekanligi tillar qiyosida biridan ikkinchisiga qarab o'zgaradi. Bu ko'pincha uning tillararo haqiqiylikiga qarshi dalil sifatida ishlatiladi. Umumiy konsensus shundan iboratki, kelasi zamon yo'nalishi (yoki kengaytmasi bilan kelajak-gipotetik) tillar bo'yicha realis toifalarida mos keladi, deb hisoblanadi.

Boshqalar esa kontrafakturalarni irrealis ma'nosini ifodalashda eng ishonchli hodisa sifatida talqin qilishadi. Biroq, bu faqat tillararo qiyosiy tipologik an'analarga murojaat etilganda ma'lum bo'ladi. Bu holat yagona yadroga ega emas. Ammo, asosiy masala prototiplardan foydalanish o'xshash kategoriyalar va ularning funktsiyalarini torroq baholash bilan bog'liq. Shuningdek, irrealisni kategorial xususiyatlarini ta'kidlash hamda uning kontseptual asosini belgilash uchun xizmat qilishi mumkin.

Birma tilidagi irrealis kategoriyasi haqida E. Komri shunday yozadi: "Kelasi zamon ishorasi irrealis deb tasniflanadi, hozirgi zamon ko'rsatkichi (boshqa modal ma'no yo'q bo'lganda) realis deb tasniflanadi. Bu turli tillarda zamon bilan ifodalanadigan voqealiklarni (har bir etnos) qabul qilinishiga bog'liqligidan dalolat beradi. Bevosita o'zbek tilida kelasi zamonga taaluqli ba'zi vaziyatlarni tahliliga e'tibor qaratamiz. Masalan, Prezident ertaga Samarqandga kelarkan. (kelar ekan); Prezident ertaga Samarqandga kelar emish. Mazkur ma'lumot o'zbek tinglovchisi ongida "aniq hodisa" emas balki "ehtimoliy hodisa", ya'ni irrealis sifatida shakllanadi. Oldingi boblarda o'zbek tilidagi –ar ekan, - gan emish kabi to'liqsiz fe'llar irrealisning grammatik ko'rsatkichlari sifatida tahlil qilgan edik. Ko'rinadiki, ushbu to'liqsiz fe'l shakllar barcha zamonda teng qo'llanilgani bahs, ular irrealis sifatida kontseptual ahamiyatga egaligi ma'lum bo'ladi. Ammo, ingliz tilida kelasi zamon talqini boshqacharoq ekanligi Bernard Komri talqinida qayd etiladi.

Jumladan, kelasi zamon ifodasi irrealisning mumkin bo'lgan talqinlaridan faqat bittasi hisoblanadi. Bu shaklning boshqa har qanday talqindan sezilarli darajada asosiyroq deb taxmin qilish uchun hech qanday asos yo'q". Bunda biz bir tomondan kelasi zamonga yo'naltirilgan bayonotlarda irrealis belgilaridan foydalanish tendentsiyasi yoki kelajakka ega bo'lish talqinlarni tan olishimiz mumkin. Boshqa tomondan, bu kuzatishlar haqiqatan ham irrealis kategoriyalarining tildagi funktsiyalarini faqatgina zamon bilan bog'lashdan, irrealis kategorial belgilariga ega bo'lgan umumiy talqinlarni tan olishimiz kerakligiga ishora qiladi.

Shu jihatdan realis va irrealisning fe'l bilan bog'liq talqinlari quyidagicha beriladi. Realis amalga oshirish holati bo'lishli yoki bo'lishsiz vaziyatni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Taxmin qilingan idrok etilgan voqealik tajribaga asoslangan real voqea- hodisalarni ifodalaydi. MASALAN, You are not going to drink wine any more, dear. It is awful to think how – I'll come to the store tomorrow and get you. I want you to pick out an automobile before we leave. That's all we need to buy here. Oh, cut that out. If you knew how sick I am of hearing such talk. (The Assessor of Success 136 P.Selected stories' by O'Henry); Улархам, мен ҳам қирққа чидаган, қирқ бирига ҳам чидам қолармиз. (277 б)

Irrealis vaziyatni amalga oshirishning bo'lishli yoki bo'lishsiz holatini tajribadan tashqaridagi hodisa sifatida ko'rsatish uchun ishlatiladi. Voqea –hodisalarni xayoliy, tasavvurdagi, realisga asoslanganligini namoyish etadi.

Realis va irrealis o'rtasidagi farqning mutlaqo boshqa muloqot turi tarkibi bilan bog'liq. Ular ergashgan bo'laklarga biriktirilgan enklitik shakllarida kodlangan bo'ladi. Ushbu belgilar o'rtasida qanchalik ma'no kelishilganligini tavsiflaydi, bunda ularning funktsiyalarini aniqlashda uzatilgan nutq akti ham muhim rol kasb etadi. Xususan, quyidagi misollarda keltirilgan "kutish mumkin bo'lgan" tushunchasi faqat ushbu konstruktsiyalardan foydalanish mumkin bo'lgan kommunikativ maqsadlar doirasi haqida umumiy fikrni ta'minlash uchun mo'ljallangan, hamda konseptual ahamiyatga ega. Masalan, "And how, comrades, I will tell you about my dream of last night. I cannot describe that dream to you. It was a dream of the earth as it will be when Man has vanished (George Orwell "Animal farm" P5); Менинг йўқлаб келганимни кўрса, далда бўладиган бирон сўз айтсам зўраки дармон, деб кутдим (Абдулла Қаҳҳор. "Минг бир жон", 52-бет)

Irrealis bog'lovchilari nutqning pragmatik tarzda belgilangan shaklini belgilash uchun ishlatiladi. So'zlovchi o'z nutqini yoki me'yorga aniq ravishda etkazmaydi. Jumlarlar zanjirida segment ma'lumotlari talqin qilishadi. Alternativ talqin agentlar kamroq nazoratga ega bo'lgan yoki hodisalarning xayoliy yo'nalishini bildiradi. Bunda haqiqiy belgilar ifodalanganidan ko'ra noaniq bo'ladi.

Irrealis ko'rsatkichlarini diskursiv funktsiyalari va ular paydo bo'lgan jumlarlar turlari bo'yicha ham tavsiflash mumkin. Odatda, irrealisga baho berilganda kelajakka qaratilgan ehtimollik, modal munosabat, temporallik, imperative mazmundagi gap va jumalarda konseptuallashuvi ta'kidlanadi. Konseptuallashuv bevosita fe'l bilan bog'liq bo'lib, istak-xohish, taxmin ma'nosiga ega bo'lgan fe'llar bilan ifodalanadi. Bu kabima'no beruvchi fe'llar barcha tillarda uchraydi. Shuning uchun ham irrealis mazminiga ega lisoniy vositalar so'zlovchi tomonidan maqsadli, strategik jihatdan qo'llaniladi. Irrealis kategoriyasi talqini shu jihatdan ham boshqa kategoriyalarga qaraganda nisbiyroq tuyuladi. Bu o'z navbatida irrealisni mantiqiy kategoriyalar sifatida tan olishga ishora qiladi. Shu jihatdan ham irrealisni ko'rsatkichlari sifatida mayl, zamon, modal, aspekt funktsiyalaridan bajaradigan leksik-grammatik kategoriyalarga murojaat qilinadi. I.Boldirevning ta'kidlashicha, shart mayli, zamon, modal munosabatlar kognitiv faoliyatga bogliq. Tildagi aniqlik, indikativ, imperative, mayllar sifatida grammatika uchun qayd etiladigan lisoniy kategoriyalar asosan real aniq bo'lmagan voqealiklarni ifodalovchi vositalar sanaladi. Ta'kidlangan mayl kategoriyalari modal munosabatlardan tashqari irrealis darajasini belgilovchi kategorial

ko'rsatkichlar sifatida tan olinadi. Shu jihatdan ham irrealisni universal lisoniy hodisa ekanligiga urg'u beriladi. Irrealisni konseptuallashuvi ushbu ma'noni beradigan lisoniy vositalar tillar kesimida turlicha ekanligi bilan ham belgilanadi. Ba'zi tillarda irrealisni darajalovchi maxsus grammatik shakllar ham mavjud.

Xususan, o'zbek tilidagi qo'shimchalar ravishlar ma'lumotni aniqligi yoki noaniqligini darajasini belgilaydi. Shart mayli sifatida qayd etiladigan leksik –grammatik vositalar har xil shakllarga ega. Lekin, ma'no jihatdan ular narsa voqealikni namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Bernard Comrie Tense. Cambridge: Cambridge University Press. 1985, -P 45
- [2]. Sonia. Cristofaro. Descriptive notions vs. grammatical categories: Unrealized states of affairs and 'irrealis'. *Language Sciences* 34. 2012-P 131-146.
- [3]. Ger. Reesink Lexicon and syntax from an emic viewpoint. *Studies in Language* 32:4. 2008. -P 866-893.